



## BOSHLANGICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SOZ TARKIBI VA YASALISHINI OQITISHNING AHAMIYATI

**Mavlyanova Dilafroz Abduraimovna**

*Toshkent shahar Bektemir tumani*

*348 - maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish o'quvchilarni o'zbek tilining imlosi, talaffuzi va o'qilishini o'rganishda muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu maqola ona tili darslarida so'z tarkibi va yasalishini o'rganishga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** morfema, leksema, lisoniy birlik, leksik ma'lno, o'zak va affiksal morfema.

Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ldi.

Darslarda ko'proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning umentnini sezish, his qilish, o'zini boshqarish fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

O'quv dasturlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zning tarkibi bilan dastlab 2-sinfdaligidayoq tanishadilar, ular o'zakdosh so'zlarning umumiyligini qismini topishga o'rjanadilar. 3-sinfda esa o'zak so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini o'rjanadilar va shu mavzular bo'yicha mashqlarni bajaradilar.

4-sinfda esa o'quvchilarning 2-3 sinflarda so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari amaliy mashqlar jarayonida mustahkamlab, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu mavzuni takrorlashga jami 5 soatgina vaqt ajratilgan, xolos. 48-mashqdan to 60-mashqgacha o'quvchilar iloji boricha ko'proq o'zakdosh so'zlar, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini topishlariga e'tibor beriladi.

— So'z tarkibi mavzusining birinchi dars mashg'uloti o'zak va o'zakdosh so'zlar, qo'shimchalar va ularning turlarini takrorlashga bag'ishlanadi. Ushbu darsda ko'zda tutilgan maqsad — o'zak va qo'shimchalarni aniqlay olish, qo'shimchalarining vazifasini (so'z yasash, so'zlarni o'zaro bog'lash) ajrata olish yuzasidan o'rganilganlarni esga tushirishdan iborat. Dars jarayonida 48-, 49-, 50-mashqlar bajariladi va 51-mashq uyga vazifa sifatida tavsiya etiladi.

Ikkinchi dars mashg'uloti — o'zak va qo'shimchalarini takrorlashga bag'ishlanadi. Darsda so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ajrata olish, so'z yasovchi





qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar yasay olish ko'nikmasini o'stirishga asosiy e'tibor beriladi. 52-, 53-, 54-mashqlar shartiga ko'ra bajartiriladi. 55-mashq esa uygazatma sifatida beriladi.

Uchinchi dars mashg'ulotda ham o'zak va qo'shimchalar takrorlanadi, o'quvchilarda so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rini o'chirishga asosiy e'tibor beriladi. Darsda 56-, 57-, 58-mashqlar shartiga ko'ra bajariladi. Uyda bajarish uchun 59-mashq tavsiya etiladi.

To'rtinchi dars mashg'ulot – yozma ish (bayon)ga bag'ishlanadi. Darslikning 60-mashqidagi matn dastlab o'qib chiqiladi va berilgan rejaga ko'ra qayta hikoyalash usulida o'quvchilar bayon yozadilar. Darsning va bayonning asosiy maqsadi ham bitta matnni qayta hikoyalash orqali o'quvchilarda bog'lanishli nutqni o'stirish.

Beshinchi dars mashg'ulot esa yozma ish (bayon)ning tahlili va xatolar ustida ishslashga, so'z tarkibi yuzasidan umumiy takrorlashga bag'ishlanadi. Shuning uchun ham ushbu darsning maqsadi ↗ o'quvchilar yo'l qo'ygan tipik xatolar ustida ishslash, so'z tarkibi yuzasidan o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni 61-mashq asosida takrorlash hamda umumlashtirishdan iborat.

So'z tarkibini tahlil qilishda esa o'quvchilar o'zak va qo'shimchalarni topish va ularni ko'rsatibgina qolmay, balki ulardan shu so'zni to'g'ri eshita olish, to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yoza olishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun esa so'z tarkibini aniqlashga oid mashq og'zaki yoki yozma ravishda o'tkazib boriladi. So'z tarkibi yuzasidan olib boriladigan mashqlar o'quvchilarda so'z va uning yozilishiga ongli ravishda qarashni tarbiyalaydi.

Ona tili ↗ har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Morfema (yunoncha: morphe — shakl) — o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksema) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida, asosan, affiks holatida bo'ladi. Masalan, -chi (kurashchi), -shunos (siyosatshunos), -q (taroq), -ki (tepki), -li (aqli), -chan (ishchan), -la (tuzla), -illa (taqilla), -lar (bolalar), -roq, (kattaroq), -mtir (qoramadir) va hokazo.

So'zning leksik maʼnosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda oʻzining nazariy asosiga ega.

Morfema ↗ soʻzning eng kichik, boʻlinmaydigan maʼnoli qismi. Morfema ikki turga boʻlinadi:

1. Oʻzak morfema ↗ soʻzda albatta qatnashadigan va leksik maʼno anglatadigan morfema.

2. Affiksal morfema ↗ mustaqil holda leksik maʼno anglatmay, soʻzning leksik va grammatik maʼnolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, gullarni, gulla soʻzlaridagi gul ↗ oʻzak morfema, -lar, -ni, -la affiksal morfemadir.





Affikslar (qoşshimchalar) ikki turga bo'ljinadi:

3. Soz yasovchi qoşshimchalar. Ular sozning leksik mañnosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, bog'bon, paxtakor, gulzor, ishchi sozlaridagi -bon, -kor,

-zor, -chi soz yasovchi affikslardir.

4. Shakl yasovchi qoşshimchalar. Bu qoşshimchalar sozlarini grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik mañnolarni ifodalaydi. Masalan, maktablarimizni sozida -

lar, -imiz, -ni shakl yasovchi qoşshimchalar bo'lib, -lar kooplilik mañnosini, -imiz egalikning I shaxs kooplilik mañnosini, -ni tushum kelishigi mañnosini ifodalaydi.

Morfemalarning qoşhilishi bir-biriga ta'sir qiladi, bundan tashqari, ko'pgina o'zak va soz yasovchi qoşshimchalar ko'p mañnoli. Shunga qaramay, ko'p sozlarining leksik mañnosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda sozni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to'g'ri keladi.


O'quvchilar sozning morfemik tarkibini va soz yasalishini o'rorganishlariga qarab, sozni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama sozlarining leksik mañnosini sozlarining semantik o'xshashligiga qarab bilib oladilar.

Sozlarining morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyati va shunga mos ravishda o'qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Sozning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar sozning leksik mañnosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilar sozlarining leksik mañnosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

2. Soz yasalishi haqidagi elementar bilim ham o'quvchilarning tilimizning yangi sozlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi soz tilda mavjud bo'lgan morfemalardan, ma'lum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). Soz yasalishini kuzatish o'quvchilarda sozga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy ta'sir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi.

3. Soz yasalishi asoslari bilan tanishish o'quvchilar lug'atini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqe'a-hodisalar haqidagi tushunchalar soz bilan ifodalananadi. Sozlar o'rtaсидаги мањно ва тузилиш jihatidan bog'lanishni belgilash o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchalar o'rtaсидаги bog'lanishga tayanadi (masalan, traktor va traktorchi sozlar o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchalar, shu tufayli mañno va tuzilishiga ko'ra bog'langan). O'quvchilar sozlarining mañno va tuzilishiga ko'ra o'zaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof- muhitda mavjud bo'lgan predmetlar, jarayonlar, voqealar o'rtaсидаги bog'lanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.





Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qoʻshimchalarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning soʻzning leksik maʼnosini tushunibgina qolmay, kontekstda aniq qoʻshimchali soʻzlardan ongli foydalanishlarini ham oʻrgatish hisoblanadi.

Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fonetik tamoyil yangi oʻzbek imlosining yetakchi tamoyili boʼlib, bunga binoan soʻzlar va ularning tarkibiy qismi (oʻzak va qoʻshimchalar) koʻproq talaffuziga muvofiq yoziladi. Oʻzak va qoʻshimchalarni toʻgʻri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, soʻz yasalishiga oid, grammatik bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. SHuning uchun soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning muhim vazifalaridan biri oʻzak va qoʻshimchalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur boʼlgan bilim va koʻnikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish oʻquvchilarning aqliy qobiliyatini oʻstirishda, xususan, til birligi sifatida soʻzni ongli bilib olish uchun zarur boʼlgan maxsus aqliy koʻnikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. Oʻqituvchining vazifasi taʼlim jarayonida bilimni oʻzlashtirish bilan oʻquvchilarda aqliy faoliyatni oʻstiradigan, analiz, taqqoslash koʻnikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlangʼich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarga soʻz tarkibi va yasalishini oʻrgatishda quyidagi metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Boshlangʼich sinflar ona tili dasturiga muvofiq soʻzning morfemik tarkibi III sinfda oʻrganiladi. IV sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʼliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi.

Avvalo, til materialini oʻrganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur.

Til materialini oʻrganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzaro bogʼlanishdagi bilimlar yigʼindisini oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy koʻnikmalarni shakllantirish tushuniladi. Soʻzning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim soʻz yasalishiga oid va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish: a) dastur materialini oʻrganish tizimida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning oʻrnini bilan; 2) ʼoʻzak, ʼoʻzakdosh soʻz, ʼsoʻz yasovchi qoʻshimcha, ʼshakl yasovchi qoʻshimcha tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasalishining oʻzaro bir-biriga taʼsir qilishi bilan; 4) morfemalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bogʼliqligini belgilab beradi.

Mavzuni oʻrganishda toʼrt bosqich ajratiladi:

Birinchi bosqich ʼ soʻz yasalishini oʻrganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi ʼ oʻquvchilarni bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʼra bogʼlanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qoʻyilishiga sabab, birinchidan, soʻzning maʼno va tuzilishi jihatidan bogʼlanishini tushunish, oʻzining





lingvistik mohiyatiga ko'ra, bir xil o'zakli so'zlarni va so'z yasalishini o'zlashtirishga asos hisoblanadi.

Ikkinci bosqich 2 bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi 2 so'zlarning ma'ltoni qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, 2o'zakdosh so'zlar 2 tushunchasini shakllantirish, bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

Uchinchi bosqich 2 o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga 2o'zak, 2so'z yasovchi qo'shimcha, 2shakl yasovchi qo'shimcha tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'l nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi.

Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi. Masalan, so'zda har bir morfemaning ahamiyatini o'zlashtirish asosida o'quvchilar so'zning leksik ma'l nosi bilan uning morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan uzviy bog'liq holda, so'zlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

O'zakni o'rganishning xususiyatlari. 2O'zak 2 tushunchasini shakllantirishda o'quvchilar o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiyligi qismi ekani va u barcha bir xil o'zakli so'zlarning ma'l nosidagi umumiyligini o'z ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

To'rtinchchi bosqich 2 so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash (III-IVsinflar). So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so'z yasovchi qo'shimchaning so'z yashashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qo'shimchaning so'z shaklini o'zgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o'quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

So'z tarkibini o'rganish darslarida mustaqil ishlarni uyuştirish natijasida o'quvchilarning grammatikaga oid bilimlari va imlo malakalarini egallashlariga imkon beradigan quyidagi vazifalarni bajarishga imkoniyat yaratiladi.

1. Turli o'quv mashqlarini bajarish natijasida o'quvchilar so'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchalar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

2. O'quvchilar so'z tarkibini tahlil qilishni o'rganadilar. O'zakdosh so'zlarni aniqlash, ma'lum bir o'zakka turli qo'shimchalar qo'shib, o'zakdosh so'zlar yashash, so'zlarga so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shib gap tuzish singari malakalarni egallaydilar.

3. So'z yashash va so'z o'zgartirishda qatnashadigan turli qo'shimchalar imlosini o'zlashtirib boradilar.

4. Aytlishi bilan yozilishida farq qiladigan undoshlar va talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosini o'rganadilar.





6. Mashqlar davomida o'quvchilar lug'ati yangi so'zlar hisobiga boyib, nutqlari o'sib boradi.

O'quvchilarni so'z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'quvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so'zidan -chi qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash (baliqchi), uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday ma'no anglatishi va qaysi so'z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqigiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona\\_tili](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona_tili)
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfema>
3. Rafiev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. T.: 2003.
4. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.

